XALQ DEPUTATLARI BAG‘DOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyul VI-68-73-11-152-K/24 Bag‘dod tumani

Bag‘dod tumanining ma’muriy-hududiy chegarasi masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma‘lumki, Bag‘dod tumani ma‘muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 11-iyundagi 01-2187/6-sonli bayonnomasi bilan Bag‘dod tumanining Buvayda, Rishton, Oltiariq va Uchko‘prik tumanlari bilan ma‘muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosi bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Bag‘dod tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 10-iyundagi 95-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman Kengashining sessiyasida “Bag‘dod tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

“O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga, “Ma‘muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Fargʻona hududlararo boʻlinmasining 2024-yil 10-iyun 95-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 11-iyundagi 01-21-87/6-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 10-moddasida “xalq deputatlari Kengashi, hokim Oʻzbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

“Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi Qonunning 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpogʻiston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari oʻz vakolatlari doirasida maʻmuriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi koʻrsatib oʻtilsin.

3. Bagʻdod tumani maʻmuriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan oʻtkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi oʻrinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Bagʻdod tumanining Buvayda, Rishton, Oltiariq va Uchkoʻprik tumanlari bilan maʻmuriy-hududiy chegarasini belgilash toʻgʻrisida”gi yigʻilish bayoni maʻqullansin.

4. Bagʻdod tumanining maʻmuriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Bagʻdod tumanining maʻmuriy-hududiy chegara chizigʻining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda maʻmuriy-hududiy chegara davlat roʻyxatidan oʻtkazilgandagina (Maʻmuriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Bagʻdod tumanining Buvayda, Rishton, Oltiariq va Uchkoʻprik tumanlari bilan maʻmuriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy eʻlon qilingan kundan eʻtiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdigʻi xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi G‘.Soliyev

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-68-73-11-152-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Bag‘dod tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni to‘g‘risidagi MA’LUMOT

T/r	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Bag‘dod tumani**	**112924,19**	**33484,52**

Xalq deputatlari Bag‘dod tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-68-73-11-152-K/24 -son qaroriga
2-ilova

